



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРИЛИШ ВА УЙ-ЖОЙ КОММУНАЛ ХЎЖАЛИГИ  
ВАЗИРИНИНГ  
БУЙРУҒИ**

**ШНҚ 2.07.01-03 “Шаҳарсозлик. Шаҳар ва қишлоқ аҳоли пунктлари ҳудудларини  
ривожлантириш ва қурилишини режалаштириш” шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларининг  
179-бандига қўшимча киритиш тўғрисида**

Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик кодекси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 19 декабрдаги ПҚ–444-сон “Электромобиллардан фойдаланиш инфратузилмасини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига мувофиқ **буюрман**:

1. ШНҚ 2.07.01-03 “Шаҳарсозлик. Шаҳар ва қишлоқ аҳоли пунктлари ҳудудларини ривожлантириш ва қурилишини режалаштириш” шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларининг 179-банди куйидаги мазмундаги хатбоши билан тўлдирилсин:

“Республикада қуриб битказиладиган савдо ва бизнес марказлари, кўнгилочар ва дам олиш масканлари, автомобилларга ёкилғи қуйиш шохобчалари, меҳмонхоналар, халқаро ва давлат аҳамиятидаги автомобиль йўллари бўйидаги инфратузилма объектларининг лойиҳаларига мажбурий тартибда электромобилларни қувватлантириш станцияларини киритиш лозим. Бунда, мазкур инфратузилма объектлари автотураргоҳларидаги машина жойларининг камида 5 фоизи (лекин битта жойдан кам бўлмаган ҳолда) электромобиллар ва гибрид автомобилларни қувватлантириш учун ажратилиши керак.”.

2. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги, Энергетика вазирлиги ҳамда Фавқулодда вазиятлар вазирлиги билан келишилган.

3. Мазкур буйруқ 2024 йил 1 январдан кучга киради.



Тошкент ш.  
2023 йил 05 апрель,  
71 сон

**Zakirov B. I.**

Келишилди:

**Vazir**

Тошкент ш.  
2023 йил 03 апрель,

**Транспорт вазири**

Тошкент ш.  
2023 йил 30 март,

**Фавқулодда вазиятлар вазири**

Тошкент ш.  
2023 йил 29 март,



**Mirzamahmudov J. T.**



**Maxkamov I. R.**



**Кулдашев А. N.**



TEXNIK JIHATDAN  
TARTIBGA SOLISH  
SOHASIDAGI NORMATIV  
HUJJATLARNING  
HUQUQIY EKSPERTIZASI  
NATIJALARI BO'YICHA  
X U L O S A

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

158 - son

1. Hujjatning turi:

Shaharsozlik normalari hamda qoidalari

2. Hujjatning nomi

SHNQ 2.07.01-03 "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalarining 179-bandiga qo'shimcha kiritish to'g'risida

3. Hujjatni tasdiqlagan organ va u kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri tomonidan 2023-yil 5-aprelda 71-son bilan tasdiqlangan.

4. Hujjat bo'yicha taklif va e'tirozlar

Mazkur hujjat texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga qo'yiladigan talablar asosida kiritilganligi sababli taklif va e'tirozlar mavjud emas. Shuningdek, mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Energetika vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan.

5. Qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilinganligi

Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi va "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son Farmoni hamda Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tayyorlash, huquqiy ekspertizadan o'tkazish va hisobga olish qoidalari (ro'yxat raqami 3344, 2021-yil 28-dekabr) talablariga javob beradi va qonunchilik hujjatlariga zid emas.

6. Mas'ul ijrochi

Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish boshqarmasi

Hujjatni huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijasi bo'yicha  
XULOSA:

Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi va "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni hamda Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tayyorlash, huquqiy ekspertizadan o'tkazish va hisobga olish qoidalari (ro'yxat raqami 3344, 2021-yil 28-dekabr) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur kiritilayotgan qo'shimcha bilan 2024-yil 1-yanvardan boshlab respublikada qurib bitkaziladigan savdo va biznes markazlari, ko'ngilochar va dam olish maskanlari, avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari, mehmonxonalar, xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llari bo'yidagi infratuzilma obyektlarining loyihalariga majburiy tartibda elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalarini kiritish talabini belgilash nazarda tutilmoqda.

Yuqoridagilarga ko'ra, "SHNQ 2.07.01-03 "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish" shaharsozlik normalari va qoidalarining 179-bandiga qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi buyruqni hisobga olish mumkin deb xulosa qilaman.

**Vazir**



**Tashkulov A. D.**  
2023 - yil 13 - aprel